

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 118965,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 125,3 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 3619,2 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 118965,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (29,6 %), savdo xizmatlari (27,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	118965,1	108,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3631,6	112,6
viloyatlar:		
Andijon	6482,6	107,4
Buxoro	5213,5	107,2
Jizzax	2580,4	114,6
Qashqadaryo	5675,2	107,2
Navoiy	3108,8	112,2
Namangan	4882,3	108,1
Samarqand	8054,1	108,1
Surxondaryo	4454,8	109,2
Sirdaryo	1575,8	109,5
Toshkent	8891,2	106,2
Farg'ona	7386,5	108,1
Xorazm	3542,6	108,3
Toshkent shahri	38870,7	111,4

Hududlar o'rtasida eng yuqori hajm bilan Toshkent shahri (38870,7 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Toshkent shahri bo'yicha 111,4 % ni tashkil etdi.

2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax (114,6 %), Navoiy (112,2 %) viloyatlari, va Toshkent sh. (111,4 %), Respublika Qoraqalpog'istonda (112,6 %) qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,2 %), Buxoro (107,2 %), Qashqadaryo (107,2 %), Andijon (107,4 %), Farg'ona (108,1 %), Samarqand (108,1 %) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida respublika bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Toshkent shahri (32,7 %), Toshkent (7,5 %), Samarqand (6,8 %), Farg'ona (6,2 %), Andijon (5,4 %) viloyatlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Sirdaryo (1,3 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlariga va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,0 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3169,2 ming so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 6,7 % ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - 15664,8 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyatida - 112,5 % kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida - 1757,8 ming so'm qayd etildi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 118965,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	118965,1	108,5
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8026,6	117,3
moliyaviy xizmatlar	16808,1	125,3
transport xizmatlari	35178,4	104,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	17361,4	102,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3577,7	104,5
savdo xizmatlari	32264,2	104,1
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3776,3	103,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	4429,4	110,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1660,6	114,9
ijara xizmatlari	2533,9	108,1
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2121,9	103,6
shaxsiy xizmatlar	3044,0	102,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1764,6	128,0
boshqa xizmatlar	3779,4	107,3

O'tgan yilning shu davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi (35,2 trln. so'm), savdo xizmatlari (32,3 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (16,8 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,0 trln. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,4 trln. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (1,7 trln. so'm) qayd etildi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (128,0 %), moliyaviy xizmatlar (125,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (110,7 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,5 %), kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (103,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,7 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida transport xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi 29,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni savdo xizmatlari (27,1 %), moliyaviy xizmatlar (14,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimasi (1,5 %) ni tashkil etadi. Shu bilan birga eng kichik ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – 1,4 % ni tashkil etadi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 16808,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 125,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha moliyaviy xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari



Hududlar orasida yuqori hajm Toshkent sh. (9332,8 mlrd.so'm), shuningdek past hajm Sirdaryo viloyatida (242,6 mlrd.so'm) qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'atlarining o'sishi Jizzax viloyatida(148,7 %) kuzatilmoqda. Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent sh. - 119,4 % qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi transportining samarali ishlashi modernizatsiya-lash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatil-gan xizmatlar (49,3 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 17,6 % ni tashkil etadi.


Temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar, transport xizmatlari umumiy hajmida 13,7 % ni egallaydi.

Tovarlar va yo'lovchilarni havo transportida tashish bo'yicha xizmatlar ulushi transport xizmatlari umumiy hajmining 11,6 % ni tashkil etadi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,8 % ga yetdi.

Harakatchanlik, qulaylik, nisbatan yuqori bo'lmagan narxlar avtomobil transportiga uning boshqa turlari o'rtasida uzoq muddat birinchilikni saqlab qolish imkonini beradi. 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 17361,4 mlrd.s o'mga teng bo'ldi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %




Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmida eng past ulush Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (2,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) qayd etildi.

Eng yuqori ulush Toshkent shahri (16,9 %), Toshkent (13,7 %), Samarqand (11,7 %), Farg'ona (9,1 %), Andijon (8,7 %), Buxoro (7,4 %) va Qashqadaryo (7,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hozirgi kunda respublika ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 32264,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 67,5 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 25,8 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 6,7 % ni tashkil qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish, yangi turdagi xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, shuningdek taklif qilingan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2018 yil yanvar-oktyabr oylarida 17,3 % ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (128,5 %), Samarqand (117,2 %), Namangan (116,7 %), Buxoro (116,6 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (119,5 %) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan uncha yuqori bo'lmagan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati Sirdaryo (109,4 %), Xorazm (112,2 %), Jizzax (112,6 %) viloyatlarida kuzatildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (85,5 %) telekommunikatsiya xizmatlariga (simsiz va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %



Ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etildi. Ularning umumiy hajmidagi ulushi 43,7 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 1,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish Toshkent viloyatida - 30,7 % qayd etildi. Sirdaryo viloyatida telekommunikatsiya xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sishi kuzatilmoqda. Bu erda o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 3577,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-oktyabr oylariga nisbatan o'sish 4,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,6 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,4 % ga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hududlar o'rtasida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori va eng past hajmlarini solishtirilishi, %




2018 yil yanvar-oktyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Toshkent shahrida 1560,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Eng past hajm Sirdaryo viloyatida - 40,2 mlrd.so'm qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha Toshkent shahri etakchilik qilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida uning ulushi 39,5 % ni tashkil qiladi. Shuningdek eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent (9,9 %), Farg'ona (8,7 %), Samarqand (6,6 %) viloyatlarida kuzatildi.


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushini taqqoslanishi,%



Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (1,4 %), Navoiy (1,7 %), viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,4 %) kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 4429,4 mlrd. so'mga tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 % ga oshdi .

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida hudular bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Hududlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo (141,0 %), Qashqadaryo (130,6 %) , Xorazm (130,5 %), Buxoro (126,1 %), Surxondaryo (122,3 %) viloyatlarida qayd etilgan.

Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Andijon (95,3 %), Samarqand (108,3 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (104,6 %) kuzatilmoqda.

Davlat statistika qo'mitasi
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Mas'ul: Q.Berdiqulov